



Ministry of Higher
Education, Science
and Innovation of the
Republic of Uzbekistan



2025
March 29



Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi

Прагмалингвистика, функциональное переводоведение и интеграция процессов преподавания языка

Pragmalinguistics, functional translation studies and integration of language teaching processes

International Scientific and Theoretical Conference

Section 1: Cognitive science and linguoculturology in modern linguistics.

Section 2: Literary studies and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of information and communication technologies into the language learning process.

for more info



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ingliz tilshunosligi kafedrası

**PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL
TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O‘RGATISH
JARAYONLARI INTEGRATSIYASI**

**mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari
TO‘PLAMI**

2025 yil, 29-mart

Buxoro – 2025

Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi maqola va tezislar to'plami, to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.A.Shukurova, G.F.Xayrullayeva, A.X.Qodirova; Buxoro; 2025 yil, 337 bet.

To'plamda respublikamiz olimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilarining xorijiy tillarda o'quv va badiiy adabiyotlar, elektron darsliklar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni yaratish hamda chop etish samaradorligini oshirish, yoshlarda chet tilni egallash darajalarining Yevropa tizimi (CEFR)ni o'rganishning o'rni, yoshlarga chet tilni o'rgatishning psixologik aspektlari, chet tilni o'rganishda til xususiyatlarining ahamiyati va muammolari, til va madaniyatlararo kommunikatsiya metodlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari, uslubshunos olimlarning ilg'or tajribalarining roli kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan maqolalari o'z ifodasini topgan. To'plamda til muammolari bilan qiziquvchi ilmiy xodimlar, katta ilmiy-xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistrantlar va o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay'ati:

Prof. O.X.Xamidov, prof.K.A.Samiyev, prof. M.Q.Baqoyeva, prof.
D.S.O'rayeva, dots. N.B.Ataboyev, prof. Z.I.Rasulov (mas'ul muharrir),
M.A.Shukurova (mas'ul kotiba)

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchilari: M.A.Shukurova, G.F.Xayrullayeva,
A.X.Qodirova

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi, professor M.H.Alimova
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.B.Bakayev
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.B.Toshev

knowledge and skills to navigate these linguistic variations, enabling them to communicate effectively and appropriately in diverse contexts.

Furthermore, sociolinguistics shed light on the role of power dynamics and language ideologies in second language acquisition. Dominant languages and societal attitudes towards minority languages can significantly influence learners' access to resources, educational opportunities, and motivation to acquire a new language. Sociolinguistics provides a critical lens through which to examine these power structure and advocate for equitable language learning environments (Fishman J., 1989).

In conclusion, sociolinguistics plays a crucial role in understanding and facilitating second language acquisition. By acknowledging the social and cultural dimensions of language, sociolinguistics offers valuable insights into the challenges and opportunities faced by language learners. It equips educators, policymakers, and learners with the tool to navigate to complex interplay between language, identity, and social contexts, ultimately fostering more effective and inclusive language learning experiences.

References

1. Abdurasulova, K. (2023). The Role of Sociolinguistics in Language Learning. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 1(4), 62-69. <https://doi.org/10.1997/gtxmws42>
2. Abdurasulova K. THE IMPORTANCE OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE PRODUCTION //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 447-450.
3. Fishman J. A. Language and ethnicity in minority sociolinguistic perspective. – Multilingual Matters, 1989.
3. Geeslin, K.L., & Long, A.Y. (2014). Sociolinguistics and Second Language Acquisition: Learning to Use Language in Context (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203117835>

INGLIZ MADANIYATIDA XUSHMUOMALALIK-NUTQ ODOBI FALSAFASI.

Komilova Dildora Shavkatovna
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
Email:dkomilova703@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz madaniyatidagi nutq odobi fenomenini nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqadi. Ushbu tadqiqotda muloqot tamoyillariga oid olimlar, jumladan, Geoffrey Leech, Deborah Tannen va Brown Penelope singari tadqiqotchilarning qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq odobining badiiy adabiyotdagi ifodasi va uning muloqot jarayonidagi ijtimoiy ahamiyati o'rganiladi. Maqolada ingliz va o'zbek nutq madaniyati qiyoslanib, ularning muloqotda muhim o'rin tutgan jihatlari ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается феномен речевого этикета в английской культуре с теоретической и практической точки зрения. В этом исследовании анализируются взгляды ученых-теоретиков коммуникации, в том числе Джеффри Лича, Деборы Таннен и Пенелопы Браун. Также изучаются проявления речевого этикета в художественной литературе и его социальная значимость в процессе общения. В статье сравниваются английская и узбекская речевая культура и раскрываются их важные аспекты в общении.

Abstract: This article examines the phenomenon of speech etiquette in English culture from a theoretical and practical point of view. This study analyzes the views of communication theory scholars, including Geoffrey Leech, Deborah Tannen, and Penelope Brown. Also, the expression of speech etiquette in fiction and its social significance in the process of communication are studied. The article compares English and Uzbek speech culture and reveals their important aspects in communication.

Kalit so'zlar: nutq odobi, ingliz madaniyati, muloyimlik tamoyillari, kommunikatsiya madaniyati, muloqot uslublari, adabiyotda nutq, ijtimoiy munosabatlar.

Ключевые слова: речевой этикет, английская культура, принципы вежливости, культура общения, стили общения, литературная речь, социальные отношения.

Key words: speech etiquette, English culture, politeness principles, communication culture, communication styles, speech in literature, social relations.

Kirish Nutq odobi muloqotda o'zaro hurmat, samimiyat va hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy tamoyillardan biridir. Har bir jamiyatda bu fenomenning o'ziga xos usullari va ko'rinishlari mavjud. Ingliz tilida bu "politeness" atamasi orqali ifodalanib, kishilar o'rtasida ijtimoiy muvaffaqiyatning asosiy garovi sifatida qaraladi. Ingliz madaniyatida nutq odobi nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi omil sifatida ham qimmatga ega. Ushbu maqola ingliz tilidagi nutq odobining nazariy asoslari, gender va madaniy farqlari hamda badiiy adabiyotlarda bu tamoyilning ifodalanishini tahlil qiladi.

Metodologiya Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Nazariy tahlil:** nutq odobi tamoyillari haqidagi ilmiy qarashlar o'rganildi.
2. **Qiyosiy metod:** ingliz va o'zbek nutq odobi o'rtasidagi farq va o'xshashliklar solishtirildi.
3. **Adabiy tahlil:** Shekspir, Harper Li, Tolkien kabi mualliflarning badiiy asarlaridagi nutq odobi namunalari tahlil qilindi.

Empirik misollar: turli iboralarning lingvistik va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatildi.

Asosiy qism. Angliyada 2010 yildan buyon 23 aprel – "Romeo va Julietta", "Otello", "Qirol Lir", "Hamlet" kabi ko'plab o'lmas asarlari bilan nomi jahonga tanilgan buyuk ingliz shoiri, yozuvchisi va dramaturgi Uilyam Shekspir tug'ilgan kunda "Ingliz tili kuni" nishonlanadi.

Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari avvalgi Nortumbriya qirolligida vujudga kelgan ingliz tili qadimgi nemis qabilalari bo'lmish anglo-saksonlar tillaridan kelib chiqqan. Bu tilda so'zlashuvchilar anglofonlar deb yuritiladi. Sersheva ingliz tilining nomi "English" (ingliz) so'zi "Angles" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Shlezvig Golshteyn (Schleswig-Holstein) bo'lganidan darak beradi.

Insonlarning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega, muloqotda o'zaro hurmat, e'tibor va samimiyatni ta'minlaydigan, turli ijtimoiy munosabatlardagi muvaffaqiyatning garovi hisoblangan nutq odobi masalasiga ingliz olim-u yozuvchilari ham alohida diqqat qaratishadi. Ular nutq odobi va muloyimlik haqida ko'plab nazariyalarni ilgari surgan bo'lib, bu qarashlar zamonaviy muloqotning o'ziga xos jihatlarini tushunishga yordam beradi.

1. Ingliz nutq odobi tamoyillari va nazariy asoslari. Ingliz tilida nutq odobi, ya'ni "politeness" hodisasiga jamiyatida muloqot jarayonida, avvalo, kishilarning bir-biriga o'zaro hurmat-izzat bilan munosabatini ta'minlovchi, ikkinchidan, ijtimoiy hayotda hamkorlikni mustahkamlash, konfliktsiz aloqa o'rnatish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, ingliz tilida "Please", "Thank you" kabi iboralar doimiy tarzda shunday maqsadlarda keng qo'llanishi ma'lum. Bu esa suhbatdoshni hurmat qilishning oddiy, ammo muhim belgisidir. O'zbek tilida esa bu mazmun "Iltimos", "Marhamat" va "Rahmat" so'zlari orqali ifodalanadi.

Robin Lakoff inglizlar nutq odobining qoida va me'yorlari haqida o'z tadqiqotlarida shunday deydi: "Politeness is the oil that lubricates the wheels of social interaction". Demak, olim jamiyatda muloqotning samaradorligini oshirish uchun nutq odobi aloqalarni qulay va samimiy qilishini ta'kidlaydi. Bu tamoyil o'zbek tilida ham mavjud. Masalan, o'zbek jamiyatida "hurmat bilan gaplashish" deb ataladigan tushuncha Robin Lakoffning bu fikriga o'xshash. Darhaqiqat, nutq odobi va muloyimlik insonlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni kamaytirishning muhim omillaridan biri ekani o'zbeklar orasida "gapi qovushdi" yoki "tinch gaplashish" kabi iboralar orqali ta'kidlanadi. Ko'p hollarda "tinch gaplashib olaylik", "dildan suhbatlashaylik" singari iboralar orqali muloqot jarayonida nizolarning oldini olishga harakat qilinadi. Bunday yondashuv Robin Lakoffning nazariyasiga to'g'ri keladi.

O'zbek tilidagi muloyimlik ko'p hollarda so'z tanlash bilan bog'liq bo'lib, kishi o'z so'zlari bilan boshqa odamlarni xafa qilmaslikka harakat qiladi. Shuningdek, gapirish ohangi va ovoz balandligi ham muloqotda muloyimlikni ifoda etuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bunda Robin Lakoffning odobning aloqalarni qulay qilish haqidagi fikri yana bir bor o'z tasdig'ini topadi. Agar

shaxs muloqotda hurmatli va odobli bo'lsa, bu nizo kelib chiqishini kamaytiradi va suhbatni yanada ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Ingliz olimlari muloyim gaplashishning ijtimoiy ahamiyatiga doim katta e'tibor qaratgan. Geoffrey Leech o'zining "Principles of Pragmatics" (1983) kitobida muloyimlikni kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Uning tamoyillariga ko'ra: hurmat va samimiyat muloqotda asosiy rol o'ynaydi. Konfliktlardan qochish va suhbatdoshni noqulay vaziyatga solmaslik tamoyillari birinchi o'rinda turadi.

Misol:

Ingliz tilida "Would you mind..." yoki "If it's not too much trouble..." kabi iboralar muloyim gaplashishning yorqin ko'rinishidir. Bu iboralar suhbatdoshga bosim o'tkazmaslik va hurmatni ifodalash vositasidir.

2. Gender farqlari va muloyimlik. Deborah Tannen o'zining "You Just Don't Understand" (1990) asarida ayollar va erkaklar muloqot uslublari o'rtasidagi farqlarni ta'kidlaydi. Ayollar ko'proq qo'llab-quvvatlovchi, yumshoq muloqotni afzal ko'rishadi. Erkaklar esa qisqalik va aniq ifoda uslubini tanlashadi. Bu tamoyillar o'zbek tilida ham kuzatiladi. Masalan, o'zbek ayollari odatda yumshoq va muloyim gaplashishga moyil bo'lib, bu jamiyatdagi gender rollari ta'sirini aks ettiradi.

3. Badiiy adabiyotda nutq odobi. Adabiyot muloyimlik va nutq odobi tamoyillarining amaliy ko'rinishini ochib beruvchi manba hisoblanadi.

Uilyam Shekspirning "Romeo va Juliet" pyesasida qahramonlar o'rtasidagi muloqot oilaviy janjal va ijtimoiy mavqe farqini aks ettiradi. Romeo va Tybaltning mojarosi natijasida nutq odobi tamoyillari buziladi, bu esa oxir-oqibat fojiali yakun bilan tugaydi.

"Masxara qushini o'ldirish" asarida Skaut Finch Bou Radliga minnatdorchilik bildiradi: "Thank you for my children, Arthur". Bu oddiy, ammo mazmunli ibora insoniy hurmat va qadrlashning timsolidir.

J.R.R. Tolkienning "Uzuklar hukmdori" trilogiyasida Frodo Baggins Galadrielga hurmat bilan minnatdorchilik bildiradi: "Lady of Lorien, I thank you from the depths of my heart." Bu muloyimlik va minnatdorchilikning yorqin namunasidir.

4. Ingliz va o'zbek nutq odobi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar. Ingliz va o'zbek nutq madaniyati muloqotda muloyim gaplashishni muhim deb biladi. Har ikki tilda ham hurmatni ifodalovchi iboralar keng qo'llaniladi:

Inglizcha: "Sorry to bother you..."

O'zbekcha: "Kechirasiz, bezovta qilgan bo'lsam..."

Farqlar: Ingliz madaniyatida ochiq minnatdorchilik va yumshoq tanqid ko'proq uchraydi. O'zbek madaniyatida esa muloqotda yumshoq muomala orqali ixtiloflarni yashirishga e'tibor qaratiladi.

5. Muloqotdagi til xushmuomalaligining roli va funksiyasi. Nutq odobi, nafaqat lingvistik hodisa sifatida, balki ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida ham ahamiyatlidir. Nutq odobining asosiy funksiyalari:

1. **Ijtimoiy rishtalarni mustahkamlash:** Muloyim so'zlashish suhbatdoshlar o'rtasida do'stona munosabatlarni yaratadi.

2. **Konfliktlarni oldini olish:** Tili yumshoq odamlar odatda tortishuvlardan qochadi. Masalan, ingliz tilida "I see your point, but may I suggest..." kabi jumlar tanqidiy fikrni yumshatib ifodalashga xizmat qiladi.

3. **Status va ijtimoiy rolni tasdiqlash:** Hurmat bilan gaplashish (masalan, "Sir" yoki "Ma'am" kabi atamalar) ijtimoiy ierarxiyaga ishora qiladi.

6. Lingvistik strategiyalar va odatiy iboralar

Ingliz tilida xushmuomalalikni ifodalash uchun quyidagi lingvistik strategiyalar keng qo'llaniladi: **Indirectness (Bilvosita ifoda):** "Could you possibly..." yoki "I was wondering if..." kabi iboralar orqali bevosita talab qilishdan qochish. **Softening phrases (Yumshatuvchi iboralar):** "It seems to me that..." yoki "Maybe we could..." gaplari yordamida keskin bayonotlarni

yumshatish. **Compliments and Gratitude (Maqtov va minnatdorchilik):** "You did a fantastic job!" yoki "Thank you so much for helping me."

7. Madaniyatlararo muloqot va nutq odobining ahamiyati

Madaniyatlararo muloqotda nutq odobi muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek madaniyatlari o'rtasida ba'zi madaniy farqlar mavjud: Ingliz tilida minnatdorchilik bildirish doimiy odat bo'lib, kichik xizmatlar uchun ham aytiladi: "Thank you for holding the door." O'zbek madaniyatida esa minnatdorchilik ko'pincha ko'proq sezilarli yordam uchun bildiriladi: "Rahmat, katta yordam berdingiz." Bunday tafovutlar noto'g'ri tushinishlar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun madaniyatlararo muloqotda moslashuvchanlik va empatiya muhimdir.

Natijalar va tahlil Nutq odobi muloqotda hurmat va samimiyatni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ingliz va o'zbek madaniyatidagi muloyim gaplashish tamoyillari umumiy jihatlarni bo'lishsada, kontekstual farqlarga ega. Badiiy adabiyot orqali nutq odobi muloqotning insoniy qadriyatlarini aks ettiradi va jamiyatdagi o'zaro hurmatni kuchaytiradi.

Xulosa Nutq odobi – bu nafaqat kommunikativ ko'nikma, balki ijtimoiy madaniyatning muhim elementi. Ingliz va o'zbek madaniyatlarida muloyimlik muloqotning asosiy tamoyili sifatida hurmat va samimiyatni ta'minlashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotlar bu tamoyilning amaliy ifodasini ochib berib, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy rishtalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois, nutq odobi masalasi lingvistika va madaniyathunoslik tadqiqotlarida dolzarb mavzulardan biri sifatida qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

2. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.

3. Tannen, D. (1990). *You just don't understand: Women and men in conversation*. Ballantine Books.

Badiiy manbalar

4. Shakespeare, W. (2000). *Romeo and Juliet*. Penguin Classics.

5. Lee, H. (2006). *To kill a mockingbird*. Harper Perennial Modern Classics.

6. Tolkien, J. R. R. (1999). *The lord of the rings*. HarperCollins.

Qo'shimcha manbalar

7. Holmes, J. (2013). *An introduction to sociolinguistics*. Routledge.

8. Lakoff, R. (1973). The logic of politeness; or, minding your P's and Q's. In *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society* (pp. 292–305).

**THE ROLE OF COGNITIVE METAPHOR IN SHAPING PERCEPTIONS AND
WORLDVIEWS**

Xayrullayeva Gulasal Farhodovna

Buxoro Davlat Universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

g.f.xayrullayeva@buxdu.uz

Annotation: *We often talk about arguments as battles, or time as money. We "attack" someone's position, "defend" our own, or "shoot down" their ideas. We "spend" time, "save" time, or "waste" time. These aren't just clever turns of phrase; they reveal a fundamental way our minds work. Cognitive Metaphor Theory suggests that metaphors aren't just for poets and writers; they're the very foundation of how we understand abstract concepts, shape our perceptions, and navigate the world.*

Key words: *Conceptual metaphor, discourse, analysis, cognitive, linguistics, framing, perception, worldview, thought, cognition*

Annotatsiya: *Biz ko'pincha bahslar haqida janglar, vaqt haqida esa pul kabi gapiramiz Biz birovning pozitsiyasiga "hujum qilamiz", o'zimiznikini "himoya qilamiz" yoki ularning g'oyalarini*

MUNDARIJA

1 – SHO‘BA: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KOGNITOLOGIYA VA LINGVOMADANIYAT

<i>Alimova M.Kh., Sayimova S.A.</i> Linguocognitive aspects of the concept obligation in the English and Uzbek linguistic cultures	3
<i>Safarov Sh.S.</i> Интролингвистические и экстралингвистические причины фонологической интерференции	8
<i>Rasulov Z.I.</i> Nutqiy faoliyat birliklari tahliliga diskursiv yondashuv	12
<i>Rasulov Z.I.</i> Understanding language as a multifunctional phenomenon in discourse	13
<i>Rasulov Z.I., Murtazoyev O.N.</i> Intertekstning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati	15
<i>Rasulov Z.I., Shodiyeva D.S.</i> Freyming nazariyasining pragmatik maqsad voqealanishidagi roli	18
<i>Kasimova N.F.</i> Non-Verbal communication as interaction	20
<i>Rakhmatova M.M.</i> Figurative Devices: Analysis of expression of implicature in American Literature	22
<i>Saidova M.U.</i> Cognitive Approach on exploring cohesion and coherence	25
<i>Saidova M.U.</i> Kogeziya va kogerensiyani o'rganishda funktsional yondashuv	27
<i>Vakhidova F.S., Kamolova K.</i> Ingliz va o'zbek tillarida aforizmlarning lingvokulturalogik xususiyatlari	28
<i>Saidov X.Sh.</i> The Cognitive laws of the expression of the speech compression in media discourse	31
<i>Djumayeva N.D., Baxshullayeva N.</i> Linguocultural analysis of superstitions and rituals related to magic in Uzbek and English	36
<i>Djumayeva N.D., Boboxo'jayeva Z.</i> Linguocultural features of linguistic units	37
<i>Djumayeva N.D., Sultonmurodova D.</i> Pragmatic functions of tense and aspect in English Verbs	40
<i>Karimova S.S., Shamina Y.A.</i> Культурные аспекты понятия «счастье»	42
<i>Davlatova M.H., Asadov A.B.</i> Speech Acts and their sociopragmatic features: the influence of social context and cultural factors	49
<i>Saidova Z.Kh.</i> Linguocognitive and pragmatic properties of phraseological units representing the human mental state in English Discourse	51
<i>Ro'ziyeva N.Z.</i> The Exploration of Euphemism in Mass Media	52
<i>Ruziyeva N.X.</i> Psychological aspects and social consequences of politeness in cybercommunication	55
<i>Ostonova S.N.</i> Stages of development of linguistics and problems of linguacultural development	58
<i>Nazarova N.A.</i> A Linguocultural and stylistic investigation of Anthroponyms	59
<i>Sapaeva S.O.</i> Conceptual Metaphors of time and their analysis in English and Uzbek Literary Texts	62
<i>Namozova K.B.</i> Buyuk Britaniyada an'anaviy to'y marosimining izchilligi va o'ziga xosligi	64
<i>Jumayeva O.I.</i> O'zbek Lingvomadaniyatida "xursandchilik" hissiyotining ifodalanishi	67
<i>Bobojonova N.J.</i> Изолянистическая теория вокативов: концептуальные аспекты и контекстуальное значение	71
<i>Akhmedov J. G'.</i> How "Fire And Water" shape language in English and Uzbek	73
<i>Safarova M.X.</i> Distinctive Features of Inter-Verbal whole-piece communication in Linguistics	75
<i>Ziyodullayeva M.E.</i> American Cognition of "Freedom" concept through the embodiment of "The statue of liberty"	76
<i>Abdurasulova K.K.</i> Sociolinguistic concepts and second language acquisition	79
<i>Komilova D.Sh.</i> Ingliz madaniyatida xushmuomalalik-nutq odobi falsafasi	81
<i>Xayrullayeva G.F.</i> The role of cognitive Metaphor in shaping perceptions and worldviews	84
<i>Razzoqova K.</i> Discourse analysis in modern linguistics: a comprehensive overview	87